

QORAKO'L QO'ZILARINING O'SISH DINAMIKASI

Sh. X. Jiyamurodova

tayanch doktorant, q.x.f.f.d., (PhD)

Z.S.Klichev

Ilmiy rahbar.Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qorako'l qo'zilarining tirik vazni va eksteryer xususiyatlari borasidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nasldor, seleksiya, zot, suruv aylanmasi, poda, realizatsiya, ekstremal, infantile.

Kirish. Qishloq xo'jalik hayvonlarining urchitishda ularning tabiiy serpushtlik salohiyatidan foydalanish hayvonlar suruvi tarkibini jadal yangilash, nasl o'zagini hamda go'sht uchun parvarishlanadigan guruhini shakllantirishni tezlashtirish imkoniyatini beradi [1, 6].

Hayvonlarning tirik vazni tarozi yordamida, tana o'lchamlari esa turli yosh davrlarida o'lhash yordamida aniqlanadi.Tana o'lchamlari; o'lchov yoki Lidten tayog'i, o'lchov lentasi, o'lchov yoki Vilkens sirkuli va shtangen sirkul yordamida o'lchanadi.

Eksteryer xususiyatlari bo'yicha hayvonlarning sog'ligi, mahsuldorlik yo'nalishi va darajasi, ayrim tabiiy-xo'jalik sharoitga moslashuvchanligi, tipning ifodalanishi to'g'risida mulohaza qilish imkoniyatini beradi. [3, 5].

Qorako'l qo'zilarining tirik vazni ularning yashovchanligiga chambarchas bog'liqdir. Tug'ulganda tirik vazni 3 kg bo'lgan urg'ochi qo'zilarning yashovchanligi ancha yuqori bo'lgan. Ular sut emadigan davrda yaxshi rivojlangan va garmonik tuzulgan gavdali qo'zilar etilgan. Bunday hayvonlar 1,5 yoshligida normal rivojlangan holatda kelgan va tirik vazni yuqori bo'lgan, yoppasiga kuyka boshlagan, qish davridagi noqulay boqish va asrash sharoitiga yaxshi bardosh bergen. [2, 4, 7].

Tug'ulganda vazni 3 kg dan kam bo'lgan urg'ochi qo'zilarning yashash qobilyati pastroq bo'lib chiqdi. Ularning ko'pchilik qismi sut emadigan davrdayoq nobut bo'lib ketgan, tirik qolganlari esa yomon o'sgan va yaxshi rivojlanmagan. Ular yozgi issiqtan va qishki noqulay ob-havoda, ayniqsa qishning ikkinchi yarmidan boshlab , yaylovlardagi o'tlarning to'yimliligi pasaygan, ob-havo yomonlashgan va yog'inlar yog'a boshlagan davrda qattiq qiynalgan. Bir yarim yoshligida ularda chala rivojlanganlik belgilari sezilib turgan; Ular ushoq, infantile (nimjon), gavdasi kalta, ko'kragi tor bo'lib, go'yo oyoqlari uzunday, yuqoriga tortilib turardi. Ular qo'shimcha em- xashakdan semirib va bir vaqtida kuyikmas edi.

Zot ichida ushoq, infantil hayvonlar ko'payishiga yo'l qo'ymaslik uchun faqat yaxshi rivojlangan, kelishgan jussali, yangi tug'ulgan paytda tirik vazni kamida 3 kg bo'lgan

qo‘zilarni nasl uchun qoldirish, maydarоq qo‘zilarni esa qorako‘l teri olish uchun so‘yishga jo‘natish maqsadga muvofiqdir.

Material va metodlar. Tajribalarimiz Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi “Saxoba ota qorako‘l nasl” MChJ qo‘ychilik xo‘jaligiga qarashli 223 bosh qorako‘l qo‘zilarida ikki guruhga ajratilgan holda olib borildi. Birinchi guruhga suruv tarkibidagi ikkinchi va uchinchi tug‘ishdagi sovluqlardan olingan 120 bosh qo‘zilar tanlab olindi. Ikkinci guruhga va to‘rt va undan ortiq avlod bergen sovliqlarning 103 bosh qo‘zilari olindi. Har xil yoshdagи qorako‘l qo‘ylari avlodlarining tirik vazn o‘sish dinamikasi aniqlandi. Qorako‘l qo‘zilarning tug‘ilganda, 21 kunlik, 1, 2, 3, 4 oylik yoshida tirik vazni aniqlanib, o‘sish tezligi jadalligi hamda tajribadagi qo‘zilarning tug‘ilganda, 1, 4 oylik yoshida tana o‘lchamlari olinib, ular asosida tana tuzilish indekslari hisoblandi va guruhlararo farq aniqlanib xulosa qilindi. Olingan natijalarni biometrik tahlil qilishda N.A.Ploxinskiyning variatsion statistika usullaridan foydalanildi.


Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarda turli yoshdagи qorako‘l sovliqlarning ikkinchi hamda uchunchi va undan ortiq avlodlarining tirik vazn o‘sish dinamikasi, tana o‘lchamlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh sovliqlardan olingan qo‘zilar tirik vazn o‘sishi va tana o‘lchamlari bo‘yicha, nisbatan katta yoshdagи sovliqlardan olingan qo‘zilar ko‘rsatkichlaridan yuqori. Jumladan, 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra I guruh qo‘zilari II guruhga nisbatan tug‘ulgan davrida sezilarli ustunlikka ega bo‘lmagan bo‘lsada, 4 oyligida ularga nisbatan 1 kg ustun bo‘lgan.

1-jadval Tajribadagi qorako‘l qo‘zilarining o‘sish ko‘rsatkichlari

Davirlar	Guruhlar			
	I	II		
Tirik vazin, kg				
	M±m	C _v	M±m	C _v
Tug‘ilganda	4,2±0,17	5,67	4,1±0,81	4,24
21 kunligida	8,6±0,21	7,23	8,3±0,09	6,54
1 oyligida	10,6±0,46	9,0	10,1±0,35	8,39
2 oyligida	20,1±0,08	11,2	19,4±0,41	14,0
3 oyligida	23,2±0,08	10,7	22,3±0,23	7,04
4 oyligida	25,2±0,08	6,4	24,1±0,83	12,03
Qarchig‘ay balandligi, sm				
Tug‘ilganda	36,3±0,02	1,06	35,9±0,07	1,54
1 oyligida	41,4±0,07	0,69	40,7±0,04	1,79
4 oyligida	55,1±0,08	0,21	54,2±0,09	0,76
Gavda qiya uzunligi, sm				
Tug‘ilganda	30,2±1,86	1,29	29,3±1,05	1,13
1 oyligida	36,1±1,86	0,51	35,4±1,43	1,67

4 oyligida	$56,4 \pm 1,02$	1,31	$55,3 \pm 0,04$	0,47
Ko'krak qafasi aylanasi, sm				
Tug'ilganda	$39,7 \pm 0,06$	0,72	$39,0 \pm 0,02$	0,29
1 oyligida	$46,4 \pm 0,11$	0,31	$44,8 \pm 0,23$	0,47
4 oyligida	$68,7 \pm 0,05$	0,26	$67,1 \pm 0,09$	0,75
Ko'krak chuqurligi, sm				
Tug'ilganda	$14,0 \pm 0,12$	1.16	$13,6 \pm 0,34$	1.04
1 oyligida				
4 oyligida	$22,9 \pm 0,06$	1.33	$21,8 \pm 0,48$	1.52

Tajribadagi qo'zilarning davirlar bo'yicha o'sish ko'rsatkichlarini foizlar hisobida 1-diagrammada kuzatish mumkin.



Xulosa

Qorako'l qo'ylarining suruv tarkibi va aylanmasini to'g'ri tashkil etish qorako'lchilikda sifatli va yuqori mahsulot olishga zamin yaratadi. Qorako'lchilik sub'ektlarida ishlab chiqarish jarayonlarini to'g'ri tashkil etishda suruv aylanmasining ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.B.Ibragimov.Turli tug'ilish tipdag'i qorako'l qo'zilarining o'sish jadalligi xususiyatlari. Zooveterinariya 2017 yil №3. 37 b.
2. M.Zokirov, Y.Valiev, Sh.Shirinboev, Qorako'lchilik. Toshkent 1983. 196 b.
3. A.A.Raximov. Qorako'lchilik. Toshkent 1967.
4. M.Sh.Ismoilov, A.G.Gaziev, A.M.Sherqulov. Qo'ylarning mahsildorlik parametrlari va ularga biometrik ishlov berish metodlari. Samarqand 2016. 7-8 b.
5. F.J.Jo'rayev. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Toshkent 2005. 249-250 b.

6. Azamovich, K. A., Tolkinovich, K. T., Mamayusupovich, K. G., & Khamdamovna, J. S. (2021). Efficacy of tissue products in karakul lambs, when shown by different nutrition.
7. Tulkinovich, X. T. (2022, April). Forel balig'i jigari ekstraktini qorako 'l qo 'zilari qonining biokimyoviy ko 'rsatkichlariga ta'siri. In E Conference Zone (pp. 355-357).
8. JS Khamdamovna, Z Klichev - Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022